

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Xalqaro xususiy huquqda nizolarning hal etishning kollizion normalari.

Yoʻldashev Mirhojiddin Saidahmad oʻgʻli

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti 4-kurs talabasi

Email: mirhojiddinyoldashev82@gmail.com

Phone number: +998912835623

Annotatsiya: Mazkur maqolada kollizion normalar tushunchasi, ularning huquqiy tizimdagi oʻrni va ahamiyati keng yoritilgan. Avvaliga “kolliziya” atamasining kelib chiqishi va maʼnosi haqida maʼlumot berilib, kollizion huquqning xalqaro xususiy huquq tarkibidagi oʻrni izohlangan. Kollizion normalarning asosiy vazifasi sifatida huquqiy munosabatlarda qaysi davlat huquqi qoʻllanishi zarurligini belgilash va tegishli moddiy normalarga havola qilish taʼkidlangan.

Kalit soʻzlar: Kollizion norma, kollizion huquq, qonunlar kolliziyasi, moddiy-huquqiy norma, huquqni qoʻllash, qonunlar ziddiyati, milliy va xalqaro huquq, huquqiy nizolar.

Аннотация: В данной статье широко освещается понятие коллизионных норм, их место и значение в правовой системе. Сначала дается информация о происхождении и значении термина “коллизия” и объясняется роль коллизионного права в структуре международного частного права. В качестве основной задачи коллизионных норм выделяется определение того, какое публичное право необходимо применять в правоотношениях, и ссылка на соответствующие материальные нормы.

Ключевые слова: Коллизионная норма, коллизионное право, коллизия законов, материально-правовая норма, правоприменение, конфликт законов, национальное и международное право, правовые споры.

Annotation: In this article, the concept of collisional norms, their role and significance in the legal system are widely covered. First, information was given about the origin and meaning of the term “collision”, and the role of collisionic law in the structure of international private law was explained. As the main task of collisional norms, it is emphasized to determine which state law should be applied in legal relations and to make reference to the relevant material norms.

Keywords: collisional norm, collisional law, collisional law, substantive legal norm, law enforcement, conflict of laws, national and international law, legal disputes.

Kirish:

Har qanday sohada va har qanday munosabatda biror narsani chuquroq oʻrganish va taxlil qilish uchun avval undagi atamalarni izohini va uni qanday maʼno anglatishi bilib olish zarur omil sanaladi. Shuning uchun tadqiqotimizni “kollizion norma” nima ekanligiga izoh berish orqali boshlasak maqsadga muvofiq boʻladi.

Kolliziya – lotincha “toʻqnashish” maʼnosini anglatadi. Kollizion huquq esa turli davlatlarning qonunlari (tashqi kollizion huquq) yoki bir davlatning normativ-huquqiy aktlari (ichki kollizion

huquq) o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilishga qaratilgan normalar majmuidir. "Kollizion huquq" atamasi ilk bor 17-asrda gollandiyalik huquqshunoslar tomonidan ishlatilgan bo'lib, 20-asrda keng qo'llanila boshlandi. Tashqi kollizion huquq xalqaro xususiy huquqning tarkibiy qismidir. Ushbu sohada qonunlar o'rtasidagi ziddiyat, ya'ni qaysi qoidani qo'llash zarurligini aniqlash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Sud yoki boshqa vakolatli organlar turli davlatlarning qonunlarini o'rganish, izohlash va qiyoslash orqali, chet el elementi mavjud bo'lgan murakkab munosabatlarga tegishli huquq normasini tanlaydi. Bu jarayon xalqaro mulkiy va shaxsiy munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega.

Kollizion norma – bu muayyan huquqiy munosabatga qaysi huquqni qo'llash zarurligini aniqlashdan iborat. Kollizion normalar boshqa huquq sohalari normalariga qaraganda ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, ular xalqaro xususiy huquqning asosini tashkil qiladi va moddiy-huquqiy nizolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

Muhokama va natijalar:

Kollizion norma muayyan huquqiy munosabatga qaysi davlatning huquqi qo'llanishini belgilaydi. Uning boshqa huquq normalaridan asosiy farqi shundaki, kollizion norma huquqiy nizolarni hal qilish uchun qaysi davlat huquqini qo'llash kerakligini ko'rsatadi. Masalan, Fransiya qonunlariga ko'ra, 18 yoshga to'lgan qiz ota-onasining roziligisiz nikohga kirishi mumkin emas. O'zbekiston qonunchiligiga binoan esa 18 yoshga to'lgan erkak va 17 yoshga to'lgan ayol ota-onalarining roziligisiz nikoh tuzishlari mumkin¹.

Chet el fuqarosi va O'zbekiston fuqarosi o'rtasida nikoh tuzilganda, bu nikohning shartlari O'zbekiston qonunlari bilan belgilanadi. Masalan, Fransiyadan kelgan qiz O'zbekistonda ota-onasining roziligisiz mahalliy yigit bilan nikoh tuzsa, bu nikoh O'zbekiston qonunlariga ko'ra haqiqiy hisoblanadi. Biroq, Fransiya qonunlariga ko'ra, ota-onasining roziligi bo'lmagani uchun bunday nikoh haqiqiy deb topilmasligi mumkin.

O'zbekiston hududida nikoh tuzilgani uchun, uni qayd qilishda O'zbekiston qonunlari qo'llaniladi va Fransiya qonuni bu jarayonga tatbiq etilmaydi. Ammo, agar Fransiyaga qaytgan qiz nikohni bekor qilmoqchi bo'lsa, Fransiya qonunlariga ko'ra ota-onasining roziligi yo'qligi asos qilib olinishi mumkin.

Shunday qilib, bunday holatlarda kollizion normani aniqlash va shu orqali qaysi davlatning huquqi qo'llanishini belgilash zarur. Nikoh O'zbekiston hududida tuzilganligi sababli, O'zbekiston qonunlariga muvofiq qayd qilinadi, lekin nikohni bekor qilish Fransiya qonunlariga asosan amalga oshirilishi mumkin.

Kollizion norma o'z mazmuni bilan huquqiy masalani to'liq hal qilmaydi, balki ushbu masalani hal etish uchun qaysi davlatning huquqi qo'llanishi lozimligini belgilab beradi. Bu norma tegishli qoida nazarda tutilgan moddiy huquqiy normalarga havola qiladi va ularning qo'llanilishini

¹ Xalqaro xususiy huquq: Darslik / Mualliflar jamoasi || y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. –T.: TDYU, 2019. – 343 b.

ta'minlaydi. Ushbu moddiy normalar qonunosti hujjatlarda emas, balki bevosita kollizion normaning manbai hisoblangan qonunlarda belgilanishi zarur.

O'zbekiston Respublikasida kollizion normalarning manbai bo'lib xizmat qiluvchi asosiy qonun hujjatlari qatoriga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, Oila kodeksi, Mehnat kodeksi, Havo kodeksi, Fuqarolik protsessual kodeksi, shuningdek, konstitutsiyaviy ahamiyatga ega boshqa qonunlar kiradi. Ushbu qonunlar xalqaro va milliy huquqiy munosabatlarda kollizion masalalarni hal qilishda yo'riqnoma vazifasini bajaradi.

Shundan kelib chiqib, kollizion norma deganda, huquqiy munosabatga qaysi davlatning huquqi qo'llanishi lozimligini aniqlovchi va ushbu huquqning moddiy normalariga havola qiluvchi norma tushuniladi. Kollizion norma o'z tabiatiga ko'ra havola qiluvchi va ko'rsatib beruvchi xususiyatga ega bo'lib, uning amaliy qo'llanilishi faqat moddiy-huquqiy normalar bilan birgalikda amalga oshirilishi mumkin. Moddiy-huquqiy normalar masalaning mazmunini hal etishga qaratilganligi sababli, kollizion norma ularning qo'llanilishi uchun dastlabki yo'nalishni belgilaydi. Shu sababli kollizion normaning huquqiy tizimdagi roli boshqa huquq sohalarining moddiy normalari bilan uzviy bog'liqdir.

Kollizion normalarning quydagi turlari mavjud:

Imperativ: Bu normalar qonun chiqaruvchining majburiy buyruq shaklidagi irodasini ifodalaydi va boshqa davlat qonunlarini tanlash imkoniyatini taqdim etmaydi. Bunday normalar qat'iy xarakterga ega bo'lib, ularga rioya etish davlat ichidagi barcha shaxslar, shu jumladan, xorijiy fuqarolar uchun ham majburiy hisoblanadi. Ushbu normalarning o'ziga xos kuchi xalqaro xususiy huquq tizimida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular jamoat manfaatlari va davlat suverenitetini himoya qilishni maqsad qiladi.

Ushbu normalar asosan davlat xavfsizligi, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy adolat yoki jamoat tartibini ta'minlash bilan bog'liq holatlarda qo'llaniladi. Bunday huquqiy qoidalar milliy qonunchilikni ustuvor darajada qo'llashni ta'minlab, xorijiy qonun normalarini tanlash yoki ularga havola qilish imkoniyatini cheklaydi. Shunday qilib, bu normalar milliy qonunchilikning mustahkamligini va unda belgilangan qoidalarning buzilmasligini kafolatlaydi.

Misol sifatida xorijiy fuqarolar yoki chet ellik investorlar uchun maxsus qonunlar tatbiq etilishini keltirish mumkin. Masalan, ayrim davlatlarda xorijiy investorlar iqtisodiyotning muhim tarmoqlarida faoliyat yuritayotganda ularning soliqqa tortilishiga oid alohida qoidalar joriy etiladi. Bu qoidalar mahalliy soliq qonunchiligiga asoslanib belgilangan bo'lib, investorlarning boshqa davlat qonunchiligi bo'yicha imtiyoz talab qilish imkoniyatini istisno qiladi. Shuningdek, agar davlat jamoat tartibini himoya qilish uchun ma'lum talablarni belgilagan bo'lsa, bu talablar xorijliklar uchun ham majburiydir.

Dispozitiv: Bu normalar qonun chiqaruvchining ixtiyoriylik yoki tanlov tamoyiliga asoslangan irodasini ifodalaydi. Dispozitiv kollizion normalari tomonlarga huquqiy munosabatlarda yoki shartnomalarda qaysi davlat qonunchiligini qo'llashni o'zlari mustaqil belgilash imkoniyatini taqdim etadi. Bunday normalar, odatda, xalqaro xususiy huquq munosabatlarida, ayniqsa shartnoma tuzishda, tomonlar huquqiy munosabatlarni tartibga solishda ularga qulay bo'lgan davlat qonunlarini tanlashlariga imkon yaratadi.

Dispozitiv kollizion normalarining asosiy xususiyati shundaki, ular tomonlarga huquqiy munosabatlarning normativ-huquqiy bazasini mustaqil ravishda belgilash huquqini beradi. Bu esa

huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining huquqiy erkinliklarini ta'minlash va ular uchun eng maqbul huquqiy rejimni yaratishga qaratilgan. Ushbu normalar, odatda, xalqaro tijorat, shartnoma va mulkiy munosabatlarda keng qo'llaniladi.

Masalan, xalqaro shartnoma tuzishda tomonlar muayyan davlatning qonunchiligini tanlash huquqiga ega bo'ladi. Bu tanlov ularga o'z huquqlarini himoya qilishda va majburiyatlarni bajarishda aniq huquqiy asoslarni belgilash imkonini beradi. Masalan, O'zbekiston kompaniyasi va xorijiy kompaniya o'rtasidagi shartnomada tomonlar o'zaro kelishuv orqali Angliya qonunchiligini tanlashlari mumkin. Ushbu tanlov, ayniqsa, Angliya qonunchiligidagi shartnoma huquqining aniq va samarali tamoyillariga ishonadigan tomonlar uchun qulaylik yaratadi.

Alternativ: Alternativ kollizion normalar xalqaro xususiy huquqning muhim qismidir. Ular, ayniqsa, huquqiy munosabatlarda chet el elementlari bo'lganda yoki turli davlatlar qonunchiligi bir vaqtda qo'llanilishi mumkin bo'lgan holatlarda keng qo'llaniladi. Ushbu normalar huquqiy munosabatlarni eng qulay huquqiy tartibga solishni ta'minlash maqsadida qabul qilinadi. Ular huquqni qo'llash jarayonini yanada moslashuvchan qilib, tomonlar huquqlarining samarali himoya qilinishini kafolatlaydi.

Misol uchun, nikohning haqiqiylikini tan olish yoki uni bekor qilish masalasini olaylik. Ba'zi davlatlarda bunday masalalar bo'yicha sud yoki tomonlar fuqarolarning doimiy yashash joyi qonunchiligini yoki nikoh tuzilgan davlat qonunchiligini qo'llash huquqiga ega bo'ladi. Masalan, Fransiyada tuzilgan nikoh Germaniya fuqarosi va Fransiya fuqarosi o'rtasida bo'lsa, nikohning haqiqiyliги to'g'risidagi masala Germaniya qonunchiligiga ko'ra ham, Fransiya qonunchiligiga ko'ra ham ko'rib chiqilishi mumkin. Sud yoki tomonlar ushbu ikki variantdan holatga eng mos keladiganini tanlashlari mumkin.

Tadqiqotimiz davomida kollizion normalarni qo'llash borasida bir nechta muamolarga duch kelish holatlari albatda uchraydi quyda ushbu muamolarni ko'rib chiqamiz:

Meros nizosi: Agar chet elda yashovchi O'zbekiston fuqarosi vafot etib, uning xorijdagi mulki bo'yicha meros taqsimoti masalasi yuzaga kelsa, xalqaro xususiy huquq qoidalariga binoan, meros taqsimotida mulk joylashgan davlat qonunlari qo'llaniladi. Ammo agar ushbu ko'chmas mulk davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan bo'lsa, masala yanada murakkablashadi. Bu holatda, avvalo mulk huquqini aniqlash talab etiladi va bunga qo'shimcha kollizion qoidalarni tatbiq etish zarur bo'lib qoladi.

Oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha nizo: O'zbekistonda joylashgan kompaniya chet eldagi boshqa bir kompaniya bilan xalqaro savdo shartnomasi tuzadi. Agar shartnoma bo'yicha nizolar yuzaga kelganda, qaysi davlat qonuni amal qilishini aniqlash muammosi paydo bo'lsa va bu masala shartnomada ko'rsatilmagan bo'lsa, kollizion normalardan foydalanish talab etiladi. Ushbu jarayon nizoni hal qilishni yanada murakkablashtirishi mumkin, chunki har bir davlatning savdo va shartnoma huquqi bo'yicha o'ziga xos qoidalari mavjud.

Bolalar vasiyligi masalasi: O'zbekiston fuqarosi va chet el fuqarosi o'rtasidagi nikohning buzilishi jarayonida bolalar vasiyligi masalasi ko'ndalang bo'ladi. Xalqaro xususiy huquq me'yorlariga muvofiq, bolaning manfaatlari qaysi tarafdin ko'proq himoya qilinishini aniqlash lozim. Har bir davlatning bolalar huquqlari bo'yicha o'z talablari va qoidalari mavjud bo'lganligi sababli, bu masalaning qaysi davlat qonunlariga binoan hal qilinishi muammoli bo'lishi va jarayonni murakkablashtirishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kollizion normalar xalqaro xususiy huquqning ajralmas qismi bo'lib, turli davlatlar qonunchiligi o'rtasidagi nizolarni hal qilishda asosiy yo'riqnoma sifatida xizmat qiladi. Ushbu normalar meros taqsimoti, shartnoma nizolari, bolalar vasiyligi kabi masalalarda qaysi davlat qonuni qo'llanishini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ularning to'g'ri qo'llanilishi xalqaro elementlarga ega bo'lgan munosabatlarni adolatli va qonuniy hal qilish uchun zarurdir. Shu bilan birga, har bir nizoni hal qilishda tomonlarning manfaatlari, qonunlarning xususiyatlari va holatning o'ziga xos jihatlarini inobatga olish lozim. Kollizion qoidalar moddiy-huquqiy masalalarni bevosita hal qilmasa-da, nizoni tartibga solishning huquqiy yo'nalishini belgilaydi va huquqiy tizimlar o'rtasida muvozanatni ta'minlaydi. Bu normalarni chuqur bilish va ulardan oqilona foydalanish xalqaro huquqiy munosabatlarda muvaffaqiyat kalitidir.